2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 195 (984), 2023-yil 23-sentabr, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

ICHIMLIK SUVI TA’MINOTINI YAXSHILASH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 22-sentabr kuni aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.

Mamlakatimizda aholi salomatligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga qaratilgan ko‘plab ijtimoiy, hududiy dasturlar bajarilmoqda. Xususan, so‘nggi olti yilda ichimlik suvi sohasiga davlat byudjetidan 14 trillion 500 milliard so‘m yoki oldingi davrga nisbatan 6 baravar ko‘p mablag‘ ajratilgan. 31 ming kilometr ichimlik suvi va oqova tarmoqlari o‘tkazilgan, 1200 ta suv inshootida qurilish-ta’mirlash bo‘lgan. Bu ishlar natijasida mingta mahalladagi 6,5 million aholi yashaydigan xonadonlarga ilk bor toza ichimlik suvi kirib bordi.

Lekin hali 30 ta tuman va 1 ming 400 ta mahallada ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash talab etiladi. Ular uchun toza suv manbasini topish zarur.

Ko‘p hollarda suv behuda yo‘qotilyapti, iste’molning aniq hisobi yo‘q. Ayrim nasoslar, soha korxonalariga tegishli maxsus texnikalar eskirgan.

Tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda shu kabi muammolar muhokama qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.

“O‘zsuvta’minot” aksiyadorlik jamiyatiga joriy yil yakunigacha 12 ming kilometr tarmoq hamda 1300 ta suv inshootini qurish va ta’mirlash vazifasi qo‘yildi. Buning hisobiga 145 ta mahalladagi 1 million 100 ming aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suvidan bahramand bo‘ladi, 2 mingta mahalladagi ta’minot yaxshilanadi.

Viloyat hokimlariga xalq deputatlari bilan birga kelgusi yil uchun dastur ishlab chiqib, hukumat qaroriga kiritish topshirildi. Bunda suv ta’minoti darajasi past 30 ta tumanga alohida e’tibor qaratish zarurligi ta’kidlandi.

Qo‘shrabot tumanida ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash, Buxoro va Jizzax shaharlarida oqova suv, Guliston, Yangiyer va Shirin shaharlarida kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish kabi loyihalarning bajarilishi ko‘rib chiqildi.

Buxorodagi ishlar xarajati maqbullashtirilgani bu borada namuna. Xususan, Buxoro shahrida tozalash va oqova suv tizimini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 281 million dollarlik loyihaning 75 million dollari iqtisod qilingan. Bu mablag‘ evaziga yana 1150 kilometr suv va 117 kilometr oqova tarmoqlarini qurish mumkin.

Shu kabi loyihalarning xarajatlarini maqbullashtirish, iqtisod qilingan mablag‘larni o‘sha hududdagi suv ta’minoti va oqova tizimini yaxshilashga yo‘naltirish muhimligi aytildi.

Soha mutasaddilari va viloyat hokimlariga yana 24 ta istiqbolli loyihaning texnik-iqtisodiy jihatlari yuzasidan ko‘rsatmalar berildi.

Suv yetkazuvchi nasoslarni energiya tejamkoriga almashtirish, soha korxonalarini moliyaviy barqarorlashtirish choralari ham belgilandi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKMANISTON PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

22-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidentini tavallud kuni bilan samimiy qutlab, unga katta muvaffaqiyatlar, qardosh turkman xalqiga farovonlik va ravnaq tiladi.

Ikki tomonlama munosabatlar va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Konstruktiv siyosiy muloqot va samarali idoralararo aloqalar rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro savdo hajmi oshib bormoqda, “Xorazm — Toshovuz” chegaraoldi savdo zonasini tashkil etish loyihasi birgalikda amalga oshirilmoqda. Energetika va transport sohalaridagi kooperatsiya mustahkamlanmoqda. Oktabr oyida poytaxtimizda Turkmaniston madaniyati kunlari o‘tkaziladi.

O‘zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari Markaziy Osiyoda o‘zaro manfaatli hamkorlikni, shu jumladan, amaldagi ko‘p tomonlama formatlar doirasida kengaytirish masalalari yuzasidan fikr almashdilar.

Telefon muloqoti yakunida davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti va xalqini bo‘lajak Mustaqillik kuni bilan dildan tabrikladi.

O‘zA

MUNOSABAT

BMT MINBARIDAN YANGRAGAN GLOBAL MUAMMOLAR VA ANIQ YECHIMLAR

Davlatimiz rahbari shu yilning 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida nutq so‘zlab, jumladan, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish masalasini ko‘tardi. Jahon jamoatchiligi diqqatini o‘ta dolzarb muammolar yechimiga qaratib, bu borada aniq takliflarni ilgari surdi.

Eng muhimi, davlatimiz rahbari ekstremizm balosi tarqalishiga, yoshlar radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun birgalikda harakatlar olib borishning asosiy tashabbuskorlaridan biri bo‘lib kelyapti. Jumladan, Prezidentimiz o‘z nutqida o‘tgan yili mart oyida Toshkentda BMT-ning terrorizmga qarshi global strategiyasini Markaziy Osiyoda amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma harakatlar rejasi qabul qilinganini ta’kidladi.

Davomi 3-betda

HUDUDLARDA

Zarafshonga BIR KELING, TANIMAYSIZ!

Qizilqum sahrosining yoshi, tarixi faqat ona tabiatga ayon. Biroq mana shu ko‘hna sahro bag‘ridagi yoshi hali bir asrga ham yetmagan mo‘jazgina Zarafshon shahri bugun ko‘rgan ko‘zni quvnatuvchi, mehmonga kelgan zamondoshni hayratga soluvchi o‘zgarishlar, yangilanishlar og‘ushida.

Zarafshon dastlab konchilar maskani sifatida bunyod etilgan bo‘lsa, hozirda ham eniga, ham bo‘yiga kengayib borayotgan, zamonaviy infratuzilmasi rivojlanib, butkul yangi qiyofaga kirayotgan ko‘rkam shaharga aylandi.

Ayni paytda Zarafshon shahrida jami 227 ta ko‘p qavatli turar joy binolari qurilishi rejalashtirilgan.

Davomi 4-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI QO‘MONDONINING MAMLAKATIMIZ AHOLISIGA MUROJAATI

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Sizlarga yaxshi ma’lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda inson qadri ulug‘lanadigan, qonun va adolat ustuvor bo‘lgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar o‘zining amaliy natijalarini bermoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, aholi tinchligi va osoyishtaligi, fuqarolarimizning qonuniy manfaatlarini so‘zsiz himoya qilish, **“Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz mahalla”, “Xavfsiz bozor”** kabi tamoyillarga qat’iy amal qilgan holda, yangi O‘zbekistonda **xavfsiz mamlakat** muhitini yaratishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 28-iyul kuni Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan yig‘ilishda yurtimizda jinoyatchilikni jilovlash hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi muammolarni tizimli hal etish, ayniqsa, “**huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi**” usullari asosida ko‘cha va mahallalarda osoyishta muhitni yaratish bo‘yicha barcha mas’ul idora va jamoatchilik vakillarining faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yib, bu borada tub o‘zgarish yasash yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.

O‘zbekiston Milliy gvardiyasi organlari boshqa huquq-tartibot idoralari bilan birgalikda ushbu dolzarb vazifalarni bajarish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamoat tartibini saqlash hamda xalqimizning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishda aniq reja asosida faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlaridagi yirik bozorlar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar va ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan obyektlarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligi, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulki ishonchli qo‘riqlanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qadrli hamyurtlar!

Milliy gvardiya o‘zining keng qirrali xizmat faoliyatini amalga oshirishda, avvalo, siz azizlarga, mahalla faollariga, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashayotgan barcha fuqarolarimizga tayanadi.

“Xavfsiz mahalla — xavfsiz turmush garovi” tamoyili asosida mahallalarda jinoyatlarning barvaqt oldini olish, ularni yuzaga keltirayotgan asl sabab va omillarni bartaraf etish, sizu bizning asosiy vazifalarimizdan biri, deb hisoblaymiz. Nega deganda, bugungi kunda mahallalardagi vaziyatni tahlil qilar ekanmiz, ming afsuski, huquqbuzarliklarni keltirib chiqarayotgan sabablardan ko‘ra, ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilan band bo‘lib qolayotganimiz ayon bo‘lmoqda.

Mahallalarda yoshlar tarbiyasiga yetarli darajada e’tibor qaratilmagani tufayli voyaga yetmaganlar va yoshlar o‘rtasida jinoiy va nosog‘lom hayot tarzini targ‘ib qilish holatlari ko‘paygani ham salbiy vaziyatning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunga barham berish uchun, avvalo, mahallalarda jinoyat sodir etilishiga imkon berayotgan omillarni aniqlab, ularni bartaraf etishimiz zarur.

Davlatimiz rahbarining ko‘rsatma va topshiriqlari asosida Milliy gvardiya bu borada o‘zining barcha kuch va imkoniyatlarini jalb etgan holda, tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni aniq belgilab oldi.

Birinchidan, bugungi kunda ayrim bozorlar, istirohat bog‘lari va xiyobonlar texnik va xavfsizlik vositalari bilan yetarli darajada jihozlanmagani, jamoat nazorati maskanlari mavjud emasligi oqibatida jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilmoqda hamda favqulodda holatlar yuzaga kelmoqda.

Davomi 2-betda

1-OKTABR — O‘qituvchi va murabbiylar kuni

SEVGANI — BOLALAR ADABIYOTI

SHU BILAN MAZMUNLI UMRI, HAYOTI

Orzusiga yetishish yo‘lida barcha mashaqqatlarga bardosh bergan insonlarni uchratsam, to‘g‘risi, havas qilaman. Ularga boshimni egib, ta’zim qilgim keladi. Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi, filologiya fanlari doktori, dotsent Xurshida Hamroqulova ham ana shunday insonlardan.

— Namangan viloyati Norin tumani Toshloq qishlog‘ida tug‘ilganman. Ota-onam uzoq yillar Uchqo‘rg‘on tumanidagi sil kasalliklari shifoxonasida ishlagan. Sirtdan qaraganda, oilamizning adabiyotga aloqasi yo‘qday ko‘rinadi... Katta farzandman, singlim va ukam bor. Qishloq sharoitida maktabdan kela solib, uy ishlariga urinardik, — deya xotirlaydi bolalik davrlarini Xurshida opa.

Davomi 5-betda

PAXTACHILIK KLASTERI: HAMMA NARSA O‘ZGARDI 2

HUNAR SEHRI CHORLAGAN SHAHAR 6

Boshlanishi 1-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI QO‘MONDONINING MAMLAKATIMIZ AHOLISIGA MUROJAATI

Bunday salbiy holatlarning oldini olish maqsadida, avvalambor, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti tomonidan ilmiy yondashgan holda yaratilgan **“Qo‘qon tajribasi”** barcha hududlardagi bozorlarda joriy etiladi.

Viloyatlar markazlaridagi yirik bozorlar, istirohat bog‘lari va xiyobonlar ma’muriyati bilan birgalikda obyektlarning asosiy kirish joylariga shaxsni yuzidan tanib oladigan videokameralar o‘rnatish choralari ko‘riladi.

Jamoat tartibini saqlash, yong‘in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish samaradorligini oshirish maqsadida qo‘shimcha videokuzatuv kameralari o‘rnatiladi va **Yagona monitoring markaziga** integratsiya qilinadi.

Bozorlar, istirohat bog‘lari va xiyobonlardagi savdo obyektlari individual qo‘riqlash bo‘yicha signalizatsiya vositalari hamda ular joylashgan hududlar “**Tashvish**” tugmalari bilan bosqichma-bosqich jihozlanadi. Ushbu obyektlarga qarashli maydonlar va ularning yonatrofida tushuntirish, targ‘ibot ishlari hamda fuqarolarni ogohlikka chaqirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytiriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, biz bu ishlarimizni tubdan qayta ko‘rib chiqqan holda, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda zarur choralarni ko‘ramiz. Natijada “**Xavfsiz bozor**”, “**Xavfsiz dam olish maskani**” konsepsiyalarining hayotga tatbiq etilishiga erishamiz.

Ikkinchidan, mahallalarda huquqbuzarlikning oldini olish bo‘yicha yangi tizim va amaliyot joriy etilib, mulkiy va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyatlar sodir etilishi ehtimoli yuqori bo‘lgan obyektlarda doimiy kuzatuv yo‘lga qo‘yiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan binolar yoki ularga kirish yo‘laklariga o‘rnatilgan videokuzatuv moslamalarini o‘zida birlashtiradigan **“E-Hamkor”** dasturi tatbiq etilib, ushbu dastur ichki ishlar organlarining hududiy situatsion markazlariga integratsiya qilinadi.

“Qizil” toifali mahallalarda jinoyatchilikni jilovlashga ilmiy nuqtayi nazardan yondashish va bu yo‘nalishdagi ishlarni maqsadli tashkil etish uchun Milliy gvardiyaning viloyat boshqarmalarida Jamoat xavfsizligi universitetining amaliy laboratoriyalari tashkil etiladi. Bunda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, jinoyat va huquqbuzarliklar sodir etilishiga zamin yaratadigan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan ish usullari ishlab chiqiladi va amaliyotga tatbiq etib boriladi.

Amaliy laboratoriya xodimlari mahallalarda ish olib borayotgan shaxsiy tarkibning ma’muriy huquqni qo‘llash amaliyoti bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini shakllantiradi, mahallalardagi “yettilik” bilan hamkorlikda **“Tinch va ahil oila”, “Jinoyatdan xoli mahalla”** va **“Raqamli mahalla”** ilmiy-amaliy loyihalari doirasida faoliyat ko‘rsatadi.

Jinoyatlarning oldini olish borasida mahallalardagi hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha “**Fuqarolar bilan ishlash moduli**” asosida uzluksiz o‘qitish tizimi tashkil etiladi.

Uchinchidan, maktablarimizda xavfsiz muhit yaratishga, o‘quvchilarga nisbatan jismoniy xavf-xatarlarni tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida shahar-tuman markazlaridagi barcha ta’lim muassasalariga “Tashvish” tugmalari va videokuzatuv moslamalari o‘rnatildi hamda Milliy gvardiya qo‘riqloviga olindi.

Kelgusida ham ta’lim muassasalarining qo‘riqlov tizimini takomillashtirish borasida **“Xavfsiz ta’lim”** konsepsiyasi joriy etilib, bu sohada keng ko‘lamli ishlarni davom ettiramiz.

> **Bozorlar, istirohat bog‘lari va xiyobonlardagi savdo obyektlari individual qo‘riqlash bo‘yicha signalizatsiya vositalari hamda ular joylashgan hududlar “Tashvish” tugmalari bilan bosqichma-bosqich jihozlanadi. Ushbu obyektlarga qarashli maydonlar va ularning yonatrofida tushuntirish, targ‘ibot ishlari hamda fuqarolarni ogohlikka chaqirishga qaratilgan chora-tadbirlar kuchaytiriladi.**

> **Ko‘pni ko‘rgan, olijanob xalqimizning “Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona” degan ibratli naqliga amal qilib, birinchi navbatda, o‘z jigarbandlarimiz, qolaversa, qo‘ni-qo‘shnilarimiz, yoru birodarlarimiz farzandlariga, mahallamiz bolalarining yurish-turishi, ta’lim-tarbiyasiga e’tiborli bo‘laylik!**
> **Shu aziz Vatan – yangi O‘zbekiston barchamizniki. Jonajon yurtimizdagi tinch va osoyishta, farovon hayotni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash va yanada mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz.**

To‘rtinchidan, fuqarolarning yashash joyidagi mol-mulkini ishonchli qo‘riqlash, ularni noqonuniy egallash holatlarining barvaqt oldini olish va o‘z vaqtida chek qo‘yishni oldimizdagi asosiy maqsadlardan biriga aylantiramiz! Ishontirib aytamanki, bu borada Milliy gvardiyada barcha zarur zamonaviy texnik qo‘riqlash vositalari, dasturlari va uskunalari mavjud bo‘lib, fuqarolarimizning mol-mulkini kafolatli qo‘riqlov tizimi qamrovi kengaytiriladi.

Shu bois, aholimizga o‘z uylarida texnik qo‘riqlov tizimlarini hamda “Tashvish” tugmalarini o‘rnatishni tavsiya etaman, uzoq yillar davomida halol mehnati bilan to‘plagan mol-mulki va moddiy boyliklarini saqlashga beparvo bo‘lmasligi hamda o‘zgalar tomonidan tajovuz qilinishiga sharoit yaratib qo‘ymasliklarini so‘rab qolaman.

Hurmatli vatandoshlar!

Barchamiz hayot tajribamizdan yaxshi bilamiz, bu dunyoda hech kim jinoyatchi yoki huquqbuzar bo‘lib tug‘ilmaydi. Ayrim insonlarning ana shunday xatoga yo‘l qo‘yishiga ularning atrofidagi muhit, muayyan sharoit sabab bo‘ladi.

Shunday ekan, azizlar, keling, hammamiz bir tanu bir jon bo‘lib, avvalambor, ana shunday salbiy muhitni, jinoyatchilikka sabab bo‘layotgan sharoitlarni bartaraf etaylik!

Unib-o‘sib kelayotgan farzand va nabiralarimizning buguni va kelajak taqdiri uchun mas’uliyat va javobgarligimizni bir necha bor oshirib, doimo hushyor va ogoh bo‘lib, ularning baxti va kamoli uchun oila, mahalla va jamiyatda sog‘lom muhit barqaror bo‘lishiga erishaylik!

Ko‘pni ko‘rgan, olijanob xalqimizning **“Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona”** degan ibratli naqliga amal qilib, birinchi navbatda, o‘z jigarbandlarimiz, qolaversa, qo‘ni-qo‘shnilarimiz, yoru birodarlarimiz farzandlariga, mahallamiz bolalarining yurish-turishi, ta’lim-tarbiyasiga e’tiborli bo‘laylik!

Shu aziz Vatan — yangi O‘zbekiston barchamizniki. Jonajon yurtimizdagi tinch va osoyishta, farovon hayotni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash va yanada mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz.

Hech qachon unutmaylik, erkin va farovon hayotimizning eng muhim sharti bo‘lgan ana shunday dolzarb vazifalarni o‘zimiz bajarmasak, hech kim chetdan kelib, biz uchun qilib bermaydi.

Shunday ekan, barchamiz, avvalo, o‘zimizning huquqiy ong va madaniyatimizni, ota-bobolarimiz an’analariga sadoqatimizni namoyon etaylik, qonun va qoidalarga qat’iy amal qilib, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlariga murosasiz bo‘lib, ularga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yaqindan yordam beraylik!

Ko‘p millatli xalqimiz, kelajagimiz egalari bo‘lgan aziz farzand va nabiralarimiz baxtli va farovon hayotining asosiy kafolati ham aynan shundadir.

Rustam JO‘RAYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni

YANGICHA YONDASHUVLAR

PAXTACHILIK KLASTERI: HAMMA NARSA O‘ZGARDI

Dang‘ara tumanidagi “Musavartex” MCHJ shaklidagi paxta-to‘qimachilik klasteri tashkil etilganidan buyon har gektar yerdan olinayotgan paxta hosildorligi 10-12 sentnerga oshdi. Bu bejiz emas.

O‘tgan yillar davomida yuzlab zamonaviy qishloq xo‘jaligi texnikasi xarid qilindi. Qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan bo‘sh maydonda oylik quvvati 1,5 ming tonna bo‘lgan paxta tozalash zavodi qurib bitkazildi. Yillik quvvati 7 ming 560 tonna kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yigiruv sexi ishga tushirildi. Bu yerda tayyorlanayotgan mahsulotlarning asosiy qismi Rossiya, Xitoy, Turkiyaga eksport qilinmoqda.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojida ilm-fan, innovatsion loyihalarning o‘rni nechog‘liq muhimligini hisobga olib, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, istiqbolli yangi navlar yaratish, serhosil ekinlarni mahalliy iqlim sharoitiga moslashtirish, ko‘p tarmoqli laboratoriya hamda ilmiy markazlar tashkil etishga e’tibor oshdi. Natijada klaster va fermer xo‘jaliklari ish faoliyati uyg‘unlashdi. Dehqonlar manfaatini himoyalash orqali paxta yetishtirish hajmini ko‘paytirish, sifatini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilyapti.

Dastlabki yillarda 6 ming 190 gektar maydondan o‘rtacha 27-28 sentnerdan paxta terib olingan bo‘lsa, o‘tgan yili hosildorlik salmog‘i 36,5 sentnerni tashkil qildi. Bugungi hisob-kitoblarga ko‘ra, joriy yilda 40 sentnerdan oshadi.

Dehqonchilik oson emas, albatta. Erta ko‘klamdagi ob-havo injiqliklari, agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida o‘tkazish, haroratli kunlardagi suv tanqisligi, hasharot muammosi dehqonchilik uchun tashvishli palla hisoblanadi. Dehqon mehnatiga yarasha daromad ko‘rishni istaydi. Manfaatdorlik bo‘lmasa, hafsalasi pir bo‘ladi. Paxtachilikda klaster tizimi yo‘lga qo‘yilgach, bu boradagi ko‘plab muammolarga yechim topildi. Bugungi fermer kechagidan tubdan farq qiladi. Uning o‘ziga yarasha hisob-kitobi, maqsad va rejalari bor.

— 2006-yildan buyon fermerlik qilib kelaman, — deydi Dang‘ara tumanidagi “G‘ayratjon — G‘iyosjon fayzi” ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaligi rahbari G‘ayratjon Ergashev. — Klaster tizimining joriy qilingani bizga juda ma’qul bo‘lyapti. Ilgari texnika, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i, suv masalasini hal etish ancha ovoragarchiliklarga sabab bo‘lardi. Ta’minot yo‘q, daladagi ishimiz qolib, shu muammolarni bartaraf etish bilan band bo‘lardik. Hosil yetishtirishda xarajat oshib ketgani bois, yilni zarar bilan yakunlardik. Oddiy bir misol. Terib olingan hosilni sotish uchun 35 kilometrdan ortiq yo‘l bosib, qo‘shni Beshariq tumanidagi paxta tozalash zavodiga olib borishga majbur edik. Endilikda hamma narsa muhayyo, faqat ishlash kerak. O‘tgan yili paxtachilikning o‘zidan 300 million so‘m sof foyda oldik. Bu yil hosil salmog‘i yanada yuqori bo‘ldi. Birinchi terimda har gektar yerdan 45 sentnerdan hosil oldik. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, paxtachilikdan 400 million so‘mdan ortiq daromad olishni ko‘zlab turibmiz. Bu juda katta imkoniyat. Xo‘jaligimizda g‘allachilikdan tashqari, sut yo‘nalishida chorvachilik tarmog‘ini tashkil qildik, yangi texnikalar xarid qilib, o‘ndan ortiq ish o‘rni yaratdik.

Paxta-to‘qimachilik klasterlari ish samaradorligi uchun ekinlar hosildorligi, albatta, muhim. Xomashyo qancha ko‘p va sifati yuqori bo‘lsa, manfaatdorlik ham oshadi. Eng muhimi, dunyo bozoriga xomashyo emas, tayyor mahsulot yetkazib berish.

— Bu yo‘nalishda yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshiryapmiz, — deydi paxta-to‘qimachilik klasteri rahbari Farhodjon Bo‘latov. — Bugungi kunga qadar paxtani qayta ishlash, ip yigiruv tarmoqlari qurilishi hisobiga 1500 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Ayni kunda momiq sochiq ishlab chiqarish bo‘yicha yillik quvvati 1620 tonnaga teng loyihani ishga tushirishga hozirlik ko‘ryapmiz. Buning hisobiga 300 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratiladi. Umumiy quvvati ming bosh bo‘lgan chorvachilik tarmog‘i tashkil qildik. Shuningdek, paxta chigitidan yog‘ ishlab chiqarish yo‘nalishida istiqbolli loyihalarni amalga oshiramiz. Natijada xomashyo yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarish hamda iste’molchilarga yetkazib berish yo‘nalishida mustahkam zanjir yaratiladi.

Klaster tumandagi paxtachilikka ixtisoslashgan 196 ta fermer xo‘jaligi bilan shartnoma asosida ish olib bormoqda. Bundan tashqari, suv yetib borishi qiyin bo‘lgan, qarovsiz, foydalanishdan chiqib ketgan 200 gektar yerni qayta o‘zlashtirish orqali paxta yetishtirilyapti.

— Asosiy e’tiborni mo‘l va sifatli mahsulot yetishtirishga qaratganmiz, — deydi ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i Islomjon To‘lqinov. — O‘tgan yili ehtiyojimiz uchun kerakli bo‘lgan urug‘ni boshqa korxonalardan sotib olganmiz. Albatta, bu mahsulot tannarxiga ta’sir o‘tkazadi. Bu yildan boshlab uni o‘zimiz yetishtirishni yo‘lga qo‘ydik. Natijada xomashyo tannarxi birmuncha pasaydi, sifati oshdi. Shu maqsadda urug‘chilikka ixtisoslashgan 14 ta fermer xo‘jaligi bilan ish olib boryapmiz. Ekin maydonlarini sifatli shudgorlash, ekishga tayyorlash muhim jarayon. Buning uchun yer tekislovchi lazer, yuqori unumli haydov, chopiq traktorlari olib kelindi. Chigit ekishda fosfor, kaliy va azotli o‘g‘itlar bilan ekishga e’tibor qaratganmiz. Bular urug‘ning bir tekis unib chiqishiga yordam berib, kasalliklarga chidamliligini oshiradi. Bundan tashqari, har bir hudud iqlim va yer sharoitiga mos bo‘lgan g‘o‘za navlarini tanlab ekishga e’tibor beryapmiz. Suv berish, ekinlar tagini yumshatish tadbirlari vaqtida amalga oshirildi. Buning hisobiga hosildorlik miqdori sezilarli oshdi, sifati yaxshilandi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish, paxtachilikda suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar suv ta’minoti og‘ir bo‘lgan hududlarda yaxshi samara berayotgani bilan ahamiyatli. Joriy mavsumda 400 gektar paxta maydonida tomchilatib sug‘orish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bu vaqt va xarajatlar miqdorini tejash bilan birga, hosildorlikni 10-15 sentnerga oshirish imkoniyatini bermoqda. Paxtachilik klasteri bu yo‘nalishda ish olib bormoqchi bo‘lgan tashabbuskor fermerlarni qo‘llab-quvvatlab, imtiyozli bank sarmoyalari ajratilishida kafil bo‘lmoqda.

Sirasini aytganda, paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi dehqonlar manfaatdorligini oshirdi, sifatli xomashyo yetishtirish, hosilni chuqur qayta ishlash, qo‘shimcha sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini kengaytirish, qishloqqa sanoatni olib kirishda qo‘l kelayotgani bilan e’tiborni tortadi.

> **Paxta-to‘qimachilik klasteri faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi dehqonlar manfaatdorligini oshirdi, sifatli xomashyo yetishtirish, hosilni chuqur qayta ishlash, qo‘shimcha sanoat va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faoliyatini kengaytirish, qishloqqa sanoatni olib kirishda qo‘l kelayotgani bilan e’tiborni tortadi.**

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MUNOSABAT

SERG‘AYRAT FAOLIYAT TAQDIM ETGAN ILHOMBAXSH NATIJALAR

Davlatimiz rahbarining AQSHga tashrifi g‘oyat sermahsul bo‘ldi. Nufuzli mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar, biznes olamining yetakchilari bilan o‘tkazilgan uchrashuv va muzokaralar, BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutq hali tarix sahifalarida ko‘p esga olinadi, tahlil qilinadi.

Odiljon TOJIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari

O‘zbekistonning serg‘ayrat Prezidenti xorijga tashriflari paytida ham tinimsiz ishlashiga mamlakatimiz tashqarisida ham “ko‘nikishdi”. O‘tkazilgan tadbirlarning intensivligi, ularda muhokama qilingan masalalar ko‘lami va hajmi tashrif tafsilotlarini kuzatib turganlarga o‘ziga xos hayrat va ilhom bag‘ishladi.

Kun tartibidagi birgina uchrashuv — Markaziy Osiyo va AQSH sammitining o‘zida qancha yangilik! Avvalo, odat tusiga kirayotgan beshta qo‘shni mamlakat Prezidentlarining global miqyosda hamjihat bo‘lib jahonning yetakchi davlatlari bilan mushtarak pozitsiyalardan muloqot qilishi mintaqa siyosiy-diplomatik tarixida, albatta, mutlaqo yangi sahifa, ulkan muvaffaqiyat. O‘zbekiston rahbarining mintaqada bunday muhit shakllanishidagi beqiyos roli, mana, jahon matbuoti va ekspertlari tomonidan e’tirof etilmoqda.

Eng muhimi, Nyu-Yorkdagi o‘sha uchrashuv va umuman, tashrif davomidagi boshqa tadbirlar Shavkat Mirziyoyevning jahon miqyosidagi diplomat mavqeini qo‘lga kiritganidan dalolat berdi.

Buning yana bir ko‘rinishi o‘laroq O‘zbekiston rahbarining BMT Bosh Assambleyasidagi tarixiy nutqini olaylik. Unda o‘z aksini topgan global muammolarga yechim bo‘ladigan takliflar nimasi bilan o‘ziga xos bo‘ldi? Avvalo, o‘sha minbardan yangragan aksar chiqishlarga solishtirganda, amaliyligi bilan ajralib turdi. Ya’ni jahon tashkilotining bosh sahnasida uchrab turadigan populistik g‘oyalar, real hayotdan yiroq falsafiy yondashuvlar, tatbiq qilinishi amrimahol fikrlar fonida mamlakatimiz yetakchisining tashabbuslarida o‘ziga va xalqimizga xos bo‘lgan vazminlik, teran tafakkur, bag‘rikenglik, boshqa davlatlar taqdiriga ham ulkan mas’uliyat kabi fazilatlar namoyon bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda o‘zaro ishonch, hamjihatlik va hamkorlik muhiti arxitektori sifatida o‘z nutqida xalqaro hamjamiyatning qo‘llovi bilan mintaqamiz birdamlik yo‘lidan borishda davom etishiga ishonch bildirdi. Uni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish mamlakatimiz tashqi siyosatida bundan buyon ham ustuvor maqsad bo‘lib qolishi ta’kidlandi.

Dunyo siyosatining yuksak minbaridan turib, xalqaro darajadagi strateg siyosatchi sifatida O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo yoshlari haqida amaliy tashabbuslarni ilgari surgani ham keng e’tirof etilmoqda. Mazkur sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan imzolangan Yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim Shavkat Mirziyoyev taklifi bilan amalga oshdi.

Ishonchimiz komilki, Markaziy Osiyo bundan buyon ham yaxshi qo‘shnichilik, barqaror taraqqiyot va mintaqalararo transport kommunikatsiyalari markaziga aylanishida beqiyos o‘rin tutgan yangi tashabbuslar bu qutlug‘ zamin rivojiga yana bir muhim hissa va kuchli turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Prezidentimizning Nyu-Yorkdagi tadbirlari, qisqa qilib aytganda, jahon hamjamiyati tomonidan O‘zbekistonning yangi qiyofasi va siyosatiga berilgan yuqori baho uning yetakchisiga xayrixohlik, e’tirof va yuksak ishonchdan nishon bo‘ldi.

> **Dunyo siyosatining yuksak minbaridan turib, xalqaro darajadagi strateg siyosatchi sifatida O‘zbekiston Prezidenti Markaziy Osiyo yoshlari haqida amaliy tashabbuslarni ilgari surgani ham keng e’tirof etilmoqda. Mazkur sohada hamkorlikni kuchaytirish maqsadida yaqinda mintaqamiz davlatlari tomonidan imzolangan Yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim Shavkat Mirziyoyev taklifi bilan amalga oshdi.**

> **Hozirda butun ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan bu boy ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqninggina emas, balki butun bashariyatning ma’naviy mulki sifatida xizmat qilib kelmoqda. Chunki bu alloma va mutafakkirlar hamisha ilm-fan ravnaqi yo‘lidagi mas’uliyatini chuqur his qilgan holda, insonparvarlik, tinchlik va ma’rifat g‘oyalariga sodiq qolib, buni o‘zlarining bashariyat oldidagi insoniy burch va vazifalari deb bilgan.**

BMT MINBARIDAN YANGRAGAN GLOBAL MUAMMOLAR VA ANIQ YECHIMLAR

Shoazim MINOVAROV,
O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Milliy strategiyasida ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish alohida e’tibor qilinadigan masala hisoblanadi. Bizda ilgari ekstremizm g‘oyalari ta’sirida bo‘lgan shaxslarni sog‘lom hayotga qaytarish va jamiyatga moslashtirish siyosati izchil olib borilmoqda.“Biz bu borada o‘ziga xos tajriba orttirdik, — dedi Shavkat Mirziyoyev, — besh marta “Mehr” insonparvarlik missiyasini o‘tkazdik. Uning doirasida 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo, ayollar va bolalarni Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytardik. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko‘rsatildi. Xalqaro jamoatchilik joriy yilning iyun oyida mana shu yerda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti bosh qarorgohida mamlakatimizga olib kelingan va yangi hayot boshlagan shaxslarning tarixini ularning o‘zlaridan eshitdi”.

Davlatimiz rahbari bu yo‘nalishdagi harakatlarni davom ettirish va doimiy tajriba almashishni yo‘lga qo‘yish uchun BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi shafeligida urush hududlaridan qaytganlar bilan tizimli ishlash bo‘yicha Mintaqaviy ekspertlar kengashi tuzish zarurligini ta’kidlar ekan, bu borada amaliy qadamlar tashlanganini qayd etdi: “Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda yanada birlashib, harakat qilishlari kerak”.

Islom Arabiston yarim orolida yuzaga kelgan bo‘lsa ham, buyuk ajdodlarimiz muqaddas dinimiz ravnaqiga ulkan hissa qo‘shgan. O‘tgan asrlarda ham xalqaro miqyosdagi islomiy muammolar xalqimiz vakillari ishtirokida hal etib kelingan. Qur’oni karimdan keyingi muqaddas manba hisoblanmish “Sahihi Buxoriy” to‘plamini tilga olishning o‘ziyoq fikrimizga yorqin dalil bo‘la oladi.

Shuning uchun keyingi yillarda islom dini bilan bog‘liq global masalalar yechimida O‘zbekiston o‘z ovoziga ega bo‘lib borayotgani hech ham tasodifiy emas. Prezidentimiz faqat yurtimiz, yo Markaziy Osiyo mintaqasi emas, balki butun jahon miqyosida kechayotgan jarayonlarga nisbatan O‘zbekiston pozitsiyasini bildirdi: “So‘nggi paytlarda ayrim mamlakatlarda ko‘zga tashlanayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlariga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, deb hisoblaymiz”. Shundan kelib chiqqan holda, muammoning yechimi sifatida aniq taklif ham o‘rtaga tashlandi: “Jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik

g‘oyalarini keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekistonda UNESCO shafeligida Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazini tashkil etishni taklif qilamiz”.

Bizningcha, Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik xalqaro markazi dunyo hamjamiyati oldida turgan o‘ta jiddiy muammoni, ya’ni milliy va diniy tolerantlikni saqlash masalalarini hal etishda ijtimoiy institut vazifasini bajaradi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma’rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari ulug‘ alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanishimizni ta’kidlar ekan: “Shunday buyuk olimlarning boy merosini o‘rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yil O‘zbekistonda “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusini ilgari suramiz”, dedi.

Mazkur xalqaro konferensiyaning o‘tkazilishi ham islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berishga xizmat qilishiga aminmiz. Binobarin, islom dini odamlarni, barcha millat va xalqlarni hamisha nurli hayotga, ezgulik, o‘zaro do‘stlik va insoniylikka da’vat etadi, jahon ahlini bir maqsad yo‘lida — jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashishda o‘zaro hamkor bo‘lishga chorlaydi.

Har bir davlat yoki jamiyat ma’naviy va moddiy taraqqiyotida milliy tarix, madaniyat, intellektual mulk muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarning jahon ilm-fani, madaniyati, muqaddas islom dini rivojiga qo‘shgan bebaho hissasi dunyo jamoatchiligi tomonidan tan olingan. Xususan, “Musulmon Renessansi” deb nom olgan IX-XII asrlardagi Birinchi Sharq Uyg‘onish davri, shuningdek, Ikkinchi Sharq Renessansi, ya’ni XIV-XVI asrlardagi “Temuriylar Renessansi”, undan keyingi zamonlarda ajdodlarimizning ilm-fan, adabiyot, san’at, madaniyat sohalarida qoldirgan mislsiz merosi bunga yaqqol dalil bo‘ladi.

> **Jahonda odamlarning ong va qalbini egallash uchun juda tezlik bilan kechayotgan kurashda yengilmaslik uchun biz ularga milliy ma’naviyatimiz va milliy mafkuramizni qarshi qo‘yishimiz, fuqarolar, xususan, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz kerak.**
> **Bu borada bizga yaqinda imzolangan, jami 100 maqsaddan iborat “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi hamda Prezidentimizning BMT minbarida so‘zlagan nutqi dasturulamal bo‘ladi, albatta.**

Jumladan, IX-XI asrlarda Xorazmda tashkil etilgan Ma’mun akademiyasi va “Bayt ul-hikma”, ya’ni “Donishmandlik uyi” degan nom bilan shuhrat qozongan Bag‘dod akademiyasida, XV asrda Samarqandda shakllangan Mirzo Ulug‘bek ilmiy maktabida samarali mehnat qilgan olimlar, o‘tmishda yurtimizda islom dinining mazmun-mohiyatini chuqur tadqiq va targ‘ib etish bo‘yicha betakror asarlar yaratgan ulamolarimiz butun dunyoga dong taratgan. Aynan o‘rta asrlarning ilk davridagi buyuk ilmiy g‘oya va kashfiyotlar natijasida matematika, astronomiya, fizika, kimyo, geodeziya, farmakologiya, tibbiyot kabi aniq fanlar bilan birga, tarix, geografiya, falsafa, madaniyat, san’at, arxitektura sohalarida ajdodlarimiz tomonidan amalga oshirilgan ishlar nafaqat Sharq, balki butun jahon ilm-fani va sivilizatsiyasiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirda butun ma’rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan bu boy ilmiy meros faqat bir millat yoki xalqninggina emas, balki butun bashariyatning ma’naviy mulki sifatida xizmat qilib kelmoqda. Chunki bu alloma va mutafakkirlar hamisha ilm-fan ravnaqi yo‘lidagi mas’uliyatini chuqur his qilgan holda, insonparvarlik, tinchlik va ma’rifat g‘oyalariga sodiq qolib, buni o‘zlarining bashariyat oldidagi insoniy burch va vazifalari deb bilgan.

Ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ushbu bebaho boylik bundan buyon ham yangi-yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai, eng muhimi, bo‘lajak kashfiyotlar uchun mustahkam zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi kunda mamlakatimiz kitob fondlarida saqlanayotgan 100 mingdan ziyod qo‘lyozma asarlarning asosiy qismi UNESCOning madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan. Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlar hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, ular bilan aholimiz va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo‘lga qo‘yish, inson qalbi va ongini egallash uchun turli xavf-xatarlar kuchayib borayotgan bugungi murakkab davrda islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g‘oyalar, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalash jamiyatimiz oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Jahonda odamlarning ong va qalbini egallash uchun juda tezlik bilan kechayotgan kurashda yengilmaslik uchun biz ularga milliy ma’naviyatimiz va milliy mafkuramizni qarshi qo‘yishimiz, fuqarolar, xususan, yoshlarda mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz kerak.

Bu borada bizga yaqinda imzolangan, jami 100 maqsaddan iborat “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi hamda Prezidentimizning BMT minbarida so‘zlagan nutqi dasturulamal bo‘ladi, albatta.

OLAM – BIR BUTUN

U BIRDAMLIK, O‘ZARO ISHONCH VA HAMKORLIK BILAN YORQINDIR

Sobitxon TURG‘UNOV,
pedagogika fanlari doktori, professor

Joriy yil 19-sentabr sanasi dunyo davlatlari tarixida o‘chmas iz qoldirishi shubhasiz. Jumladan, yangi O‘zbekistonning ham. Xuddi shu kuni AQSHning Nyu-York shahrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 78-sessiyasining umumsiyosiy munozaralari boshlandi. Unda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi.

Nufuzli anjumanda davlatimiz rahbarining davlat tili — o‘zbek tilida nutq so‘zlashi qalbimizda o‘zgacha g‘urur-iftixor tuyg‘ularini qayta uyg‘otdi. Go‘yoki ona tilimiz qadri, jozibasi, darajasi yana bir bor osmon qadar yuksaldi.

Qolaversa, bu samimiy va muxtasar nutq yangi O‘zbekistonning o‘tgan qisqa, biroq zalvorli yo‘li, bugungi qiyofasi, xalqimiz yashash tarzi, kelajak orzulari va unga hamohang davlat siyosatining tub maqsad va mohiyatini o‘zida yaqqol aks ettirdi.

Prezidentimiz mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga alohida to‘xtalib, global va mintaqaviy kun tartibidagi eng dolzarb masalalar yechimiga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi va: “Biz huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat bo‘lmish yangi O‘zbekistonni barpo etish siyosatini qat’iy davom ettirmoqdamiz. Mamlakatimiz “Inson qadri va manfaatlari uchun” degan ezgu g‘oya asosida demokratiya va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgari bormoqda”, dedi.

Xalqimiz o‘z ertasini, orzu-maqsadlarini farzandlar taqdiri bilan bog‘laydi va bu biz uchun azaliy qadriyat. Aslida ham yoshlar, ularning ta’lim olishi, sog‘lom ulg‘ayishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga e’tibor bergan millat eng to‘g‘ri yo‘ldan borayotgan davlat egalaridir.

Shu ma’noda, nutqda inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash — O‘zbekiston o‘z oldiga qo‘ygan strategik vazifalardan biri ekani e’tirof etildiki, bu fikrlar mamlakatimizda o‘tgan olti yilda maktabgacha ta’limdagi qamrov 21 foizdan 70 foizga, oliy ta’limda esa 9 foizdan 38 foizga yetgani, 2030-yilga qadar har bir bolaning bog‘chaga qatnashi, maktabni bitirayotgan har ikki o‘quvchining biri esa oliygohda o‘qishi uchun imkoniyat yaratilishi bilan izohlanadi.

O‘z navbatida, aholisining deyarli yarmi

yosh avlod vakillari bo‘lgan Markaziy Osiyo uchun yoshlar va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalasi, ayniqsa, dolzarb ahamiyatga ega ekani ta’kidlandi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan mintaqamiz davlatlari tomonidan Yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari haqidagi bitim imzolandi. Bu sohada BMT va uning ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o‘rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida “Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030” dasturini ishlab chiqish taklif etildi.

Guvohi bo‘lib turibmizki, yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlari har tomonlama muhofaza qilinadi. Bu esa nutqda aytib o‘tilganidek, milliy siyosatimiz asosini tashkil etadi. Birgina oliy ta’lim va kasb-hunar tizimida xotin-qizlar uchun yaratib berilgan imkoniyatlarni olaylik. Ehtiyojmand oilalardagi xotin-qizlarga oliy ta’lim muassasalariga kirishda davlat granti asosidagi qabul doirasidagi tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma beriladi. Xotin-qizlarning kasb o‘rganish xarajatlari ham davlat tomonidan to‘lanadi. Bunda xotin-qizlar nodavlat ta’lim tashkilotlarida kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qish xarajatlarining 70 foizi, biroq har bir bitiruvchiga 1 million so‘mdan ortiq bo‘lmagan xarajatlar davlat tomonidan qoplanadi. Qolaversa, magistraturada o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlari davlat tomonidan qoplab berilish tartibi belgilangan.

Bundan tashqari, hukumat qarori bilan har bir hududdan ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo‘q yolg‘iz 100 nafar ayolning to‘lov-kontrakti hokimliklar tomonidan har yili to‘lab beriladi. Ko‘rinib turibdiki, yurtimizda xotin-qizlarning ilmli, ma’rifatli, kasb-hunarli bo‘lishi uchun jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Zotan, ayol ma’rifatli bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi, ziyoli onalar ma’naviyati yuksak farzandlarni tarbiyalay oladi.

Nutqda gender tenglikka erishish borasida ham mamlakatimizda tizimli ishlar olib borilayotgani, o‘tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizini qizlar tashkil etgani, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetgani, ayollar va voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilingani ta’kidlab o‘tildi.

Prezidentimiz O‘zbekiston “Birlashgan Millatlar Tashkiloti — Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishdan manfaatdorligini qayd etib, birgalikdagi tashabbus sifatida ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yili O‘zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o‘tkazishni taklif qildi.

E’tiborli jihati, aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat tufayli mamlakatimizda 2017-yildan buyon kambag‘allik ikki barobarga kamaydi. 2030-yilgacha uni 7 foizga tushirish reja qilingan.

“Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi tomonidan ilgari surilgan “Ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy himoya global akseleratori” borasidagi tashabbusni qo‘llab-quvvatlaymiz. Mazkur tashabbus doirasida tajriba almashish uchun 2024-yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida “Ijtimoiy himoya: barqaror taraqqiyot sari yo‘l” butunjahon konferensiyasini yurtimizda o‘tkazishni taklif etaman”, dedi O‘zbekiston yetakchisi bu borada o‘z fikrini bayon etar ekan.

Nutqda, shuningdek, hozirgi vaqtda dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotgani qayd etilib, Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotgani ta’kidlandi. O‘zbekiston tomonidan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida ko‘rilayotgan choralar, mintaqamizdagi iqlim o‘zgarishining salbiy ta’siri va suv bilan ta’minlanganlik darajasi kamayish tendensiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirildi.

Global muammo bo‘lgan Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etish yo‘lida O‘zbekiston o‘z imkoniyatlari darajasida harakat qilmoqda. So‘nggi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar maydonda qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklardan iborat yashil hududlar barpo etilgani, bu sa’y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo‘llab-quvvatlashi juda muhimligi qayd etildi.

Bu vaziyatdan kelib chiqqan holda, BMT Bosh kotibining Suv resurslari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi ta’sis etilishi, Markaziy Osiyo suvni tejaydigan texnologiyalar platformasi yaratilishi va mintaqamizda qabul qilingan Yashil taraqqiyot dasturi doirasida tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi qo‘llab-quvvatlandi.

“Bu borada “Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”ni joriy etishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman. Biz Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik” rezolyutsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari suramiz. Uning asosiy mazmunini kelgusi yil Samarqandda bo‘lib o‘tadigan xalqaro iqlim forumida muhokama qilishni taklif etamiz”, dedi Prezidentimiz va O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa bo‘lib qolishini ham ta’kidladi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqi nihoyasida “Mustahkam tinchlik va farovonlikka faqat umumiy intilishlar va birgalikdagi harakatlar bilan erishish mumkin. Bizga o‘zaro ishonch, birdamlik va hamkorlik ruhi har qachongidan ham ko‘proq zarur”, degan fikrlarni bayon etdi.

Chindan ham, bir oz mushohada yuritsak, olam — bir butun. Unda hayot kechirayotgan xalqlar o‘rtasida birdamlik, o‘zaro ishonch va hamkorlik bo‘lmas ekan, bu butunlikka putur yetishi mumkin. Insoniyatni tanazzulga olib boradigan global muammolarga qarshi birgalikda kurashilmas, xalqlar va elatlar ezgulik yo‘lida birlashmas ekan, kelajakni yorqin tasavvur etib bo‘lmaydi.

YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uznews yuz_official yuz.uz_ne

HUDUDLARDA

Zarafshonga BIR KELING, TANIMAYSIZ!

G‘olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

— Bir yil davomida 29 ta ko‘p qavatli uy qurib bitkazildi va 1200 dan ziyod xonadon aholiga topshirildi, — deydi Zarafshon shahar hokimi o‘rinbosari Xurshid Oripov. — “Sanoatchilar” shaharchasi va yangi kichik tumanlarda ham 150 ga yaqin yangi xonadon qurilmoqda. Ko‘p qavatli uylar oldida zamonaviy bolalar va sport maydonchalari barpo etilmoqda. Avval shahrimizda bitta mehmonxona bo‘lgan bo‘lsa, hozir ular soni 10 ga yaqinlashdi. Yo‘llar yanada ravon bo‘lib, aholi farovonligi uchun barcha sharoit yaratilib, shaharda infratuzilma butkul o‘zgarmoqda.

Sir emas, Zarafshon shahrining aksariyat aholisi Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimidagi zavodlarda mehnat qiladi. Shuning uchun ham bu yerda tog‘-kon sanoatida yirik maktab shakllangan. Yer osti boyliklarini o‘rganish, ularni qazib olish va oqilona foydalanish, tabiiy resurslar zaxirasini asrash, zavodlardagi texnikalarni modernizatsiya qilish ishlari yangi bosqichga ko‘tarilgan.

Shahar aholisining soni va mashg‘ulot turi kun sayin o‘zgarmoqda. Shaharda tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes subyektlari safini kengaytirish borasida e’tibor qaratilayotgan sohalar turi ko‘p. Aholini tadbirkorlikka jalb etish, tadbirkorlik subyektlari sonini o‘tgan yilga nisbatan 4 barobar oshirish maqsadida joriy yilda 395 ta, shundan 167 ta kichik biznes subyekti tashkil etildi. “Oilaviy tadbirkorlik” dasturi asosida joriy yil boshidan hozirga qadar 724 subyektga 16 milliard so‘mdan ortiq imtiyozli kredit mablag‘i yo‘naltirildi.

Sanoat shahri sifatida imkoniyatlar ko‘lami keng hududda joriy yilning birinchi yarmida sanoat mahsulotlari hajmi 320 milliard so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 foiz o‘sgan. Shuningdek, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 129,6 milliard so‘m, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari xajmi esa 36,8 milliard so‘mni tashkil etmoqda. Qurilish ishlari bo‘yicha 193,3 milliard, chakana tovar aylanmasi hajmi esa 508 milliard so‘mga yetkazilgan. Shaharda eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 239,5 foiz o‘sgan.

Zarafshon shahri qulay investitsion imkoniyatlarga ham ega hudud hisoblanadi. Yil boshidan buyon shaharda 27,5 million AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Yil yakuniga qadar bu ko‘rsatkich 100 million dollarga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Mahalliylashtirish dasturi doirasida joriy yilda 450 milliard so‘mlik loyihalarni shakllantirish belgilangan bo‘lsa, shu yilning olti oyida dastur doirasida qiymati 451,8 milliard so‘mlik 4 ta loyiha shakllantirilib, ishga tushirildi.

Shuningdek, joriy yilning yana bir katta yangiligi loyiha guruhlari tomonidan qiymati 157,5 million dollarlik 28 ta yangi istiqbolli investitsiya loyihalari shakllantirildi. Jumladan, mavjud mahalliy va xorijiy investitsiyalar evaziga qurib ishga tushirilgan “Zarafshon oyna” MCHJ tomonidan 200 nafarga yaqin aholi ish bilan ta’minlanib, yiliga 250 milliard so‘mlik shisha mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Sifatli tibbiy xizmat aholi salomatligini ta’minlashning muhim sharti. Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasida so‘nggi yillardagi o‘zgarishlarni bu yerdagi zamonaviy tibbiy jihozlar orqali ham ko‘rish mumkin. Yaqin yillargacha jiddiy kasallik bilan og‘rigan bemorlar viloyat markazidagi shifoxonalarda statsionar sharoitda muolaja olgan bo‘lsa, hozirda shaharning o‘zida sifatli tibbiy xizmatdan foydalanmoqda.

— Tibbiyot birlashmamiz 2010-yilda tashkil etilgan bo‘lib, faqat poliklinikaga ega edi. 2020-yilda turli kasalliklar bo‘yicha bo‘limlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi va ko‘plab zamonaviy tibbiy uskuna bilan jihozlandi. Albatta, shahar aholisi juda mamnun. Chunki endi viloyat markazi yoki poytaxtga bormasdan, turli tibbiy ko‘riklar va hatto ayrim murakkab jarrohlik amaliyotlari malakali mutaxassislarni jalb etgan holda shu yerning o‘zida amalga oshirilmoqda, — deydi Zarafshon shahar tibbiyot birlashmasi boshlig‘i o‘rinbosari Boborahim Toshboyev.

Yiliga o‘rtacha 2000 ga yaqin tug‘ilish qayd etilayotgan Zarafshon shahar tumanlararo perinatal markazi tug‘uruq kompleksi 35 o‘rindan iborat bo‘lib, 4 ta bo‘lim faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Chaqaloqlar patalogiyasi bo‘limiga olib kelingan zamonaviy apparatlar erta tug‘ilgan chaqaloqlarni sog‘lomlashtirish, ularning hayotini saqlab qolishda katta imkoniyatga ega. Mazkur perinatal markazi Zarafshon shahridan tashqari Uchquduq, Tomdi tumanlari aholisiga ham xizmat ko‘rsatadi.

> **Yuqoridagi manzaralar Zarafshon shahridagi islohotlardan bir tomchi, xolos. Yangilanishlar ko‘lami keng. Albatta, barchasi inson uchun. Ayniqsa, olis cho‘l hududi javohiri bo‘lgan shahar aholisi ushbu yangilanishlardan mamnun. Shuning uchun ham ishdan horib-charchab emas, tetik kayfiyatda qaytgan odamlar shinam uylarda oilasi bag‘rida, farzandlari quvonchidan ruhiy quvvat olib, yurt ravnaqiga ulush qo‘shib, shukronalik hissi, ertangi kunga ishonch bilan yashamoqda.**

Shaharda ta’lim tizimidagi islohotlar ham o‘z samarasini bermoqda. Tobora ko‘payib borayotgan IT o‘quv markazlari o‘quvchilar bilan gavjum. Shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufida hozirgi kunda 13 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi, 1 ta Barkamol avlod bolalar maktabi, 20 ta davlat, 3 ta davlat-xususiy sheriklik asosida, 15 ta oilaviy maktabgacha ta’lim tashkiloti mavjud. Joriy yilda maktab ta’limini rivojlantirish, o‘quvchi va o‘qituvchilarga zarur shart-sharoit yaratish maqsadida investitsiya va “Obod mahalla” davlat dasturlari asosida 8 ta maktabda qurilish-ta’mirlash ishlari bajarilib, 1500 dan ziyod o‘quvchining bilim olishi uchun zamonaviy sharoit yaratildi. 2023-2024 o‘quv yilida shahar bo‘yicha 1-sinfga 2 mingdan ziyod o‘quvchi qabul qilindi. E’tiborlisi, o‘tgan yillar davomida mahalliy budjetdan ajratilgan 191 million so‘m mablag‘ evaziga shahardagi barcha maktab kutubxonalarining kitob fondi boyitildi.

Shunga yarasha ta’lim sohasida erishilayotgan yutuqlar ham salmoqli. 2022-2023-o‘quv yili davomida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazining “Zamonaviy maktab” reytingida 3-umumiy o‘rta ta’lim maktabi viloyatda 4 ta ixtisoslashtirilgan maktablar o‘rtasida 1-o‘rinni, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘rtasida 4-umumta’lim maktabi 1-o‘rinni, 2-umumta’lim maktabi 4-o‘rinni egalladi. 9-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchisi Aziza Ibrohimova 10-14 yosh toifasida o‘tkazilgan “Yosh kitobxon” Respublika tanlovida birinchi o‘rinni egallab, Prezident sovg‘asi — “Spark” avtomobili bilan taqdirlandi. 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchisi Mirfayz Husenov “Mirzo Ulug‘bek vorislari” ko‘rik-tanlovining Respublika bosqichida birinchi o‘rinni olib, muddatidan oldin ikkita nufuzli universitet talabasi bo‘ldi.

Yangi o‘quv yili oldidan zamonaviy tarzda bunyod etilgan Zarafshon shahar ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘quvchilar uchun yana bir katta tuhfa bo‘ldi.

Bugun hududda bolalarni bog‘chaga qamrab olish ko‘rsatkichi 100 foizdan oshgan.

Yuqoridagi manzaralar Zarafshon shahridagi islohotlardan bir tomchi, xolos. Yangilanishlar ko‘lami keng. Albatta, barchasi inson uchun. Ayniqsa, olis cho‘l hududi javohiri bo‘lgan shahar aholisi ushbu yangilanishlardan mamnun. Shuning uchun ham ishdan horib-charchab emas, tetik kayfiyatda qaytgan odamlar shinam uylarda oilasi bag‘rida, farzandlari quvonchidan ruhiy quvvat olib, yurt ravnaqiga ulush qo‘shib, shukronalik hissi, ertangi kunga ishonch bilan yashamoqda.

JAMIYATGA YO‘L

ISHTIYOQ, HARAKAT VA IMKONIYATDAN YARALGAN TADBIRKORLIK

YOXUD KAMBAG‘AL BIR OILANING HAYOTI QANDAY O‘ZGARGANI HAQIDA

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Intilganga tole yor, deyishadi. Yaqinda to‘y sabab qishloqdagi qarindoshimiznikiga boradigan bo‘ldik. Oxirgi marta mehmon bo‘lganimizda Dilshod akaning moddiy ahvoli o‘rtamiyona edi. Hozir esa uyjoyini yaxshigina ta’mirlab, kerakli sharoitlarni yaratib olibdi.

Qarindoshimiz kenja o‘g‘lini uylantirdi. To‘g‘ri, u ortiqcha isrofgarchilikni uncha xushlamaydigan odam, lekin dasturxon to‘kinligi nazarimizda ancha oshibdi. Tag‘in o‘yladim: dabdabali to‘y qilish o‘zbekning qon-qoniga singib ketgan ekan-da.

Qishloqlarda shunday odat bor: to‘yma’rakasiga uzoqdan kelgan mehmonlarni yana alohida mehmon qilishni xush ko‘radi. Biz ham shu odat ishtirokchisi bo‘ldik.

Ertasiga nonushtadan so‘ng xonadon egasi tadbirkorlikni qanday yo‘lga qo‘yganini ko‘rsatish uchun dastlab chorvasi tomon boshladi. To‘rt tomoni devor bilan o‘ralgan, chamasi yarim gektar keladigan joyda 10 bosh buqa boqilayotgan ekan. Har birining so‘xtasi fildek keladi. “Buzoqcha paytida sotib olganman, uni boqish sirini bilsangiz bas, soat sayin semirib, vazni ortaveradi”, deydi qarindoshimiz.

— Bularning shu turishdagi narxi qancha endi? — qiziqdim.

— Har qalay arzon emas, lekin hozircha sotmayman. Yana bir-ikki oy saqlaymiz.

Og‘ilxonani shunday qurishganki, 10 bosh katta buqani bir kishi bemalol parvarish qila oladi. Har birining oldiga suv, yemish saqlanadigan katta idish o‘rnatilgan, tugmachani bossangiz bo‘ldi, oxurga belgilangan miqdordagi suv va yemishning o‘zi tushadi. Demak, zamonaviy texnologiyalar allaqachon chorvachilikka ham kirib kelibdi-da.

Og‘ilxonadan sal narida 2 qavatli bino joylashgan. “Bu oilaviy tadbirkorligimizning asosiy daromad manbai — tikuvchilik sexi. Hozir ko‘rgan og‘ilxona-yu buqalar ham mana shu sexning foydasidan”, izoh beradi Dilshod aka.

Uzunligi 20 metrcha keladigan, ta’mirlangan 2 ta katta xonaga 10 ta tikuv mashinasi o‘rnatilgan. To‘xtovsiz ishlashayotganidan ham buyurtma ko‘pligini anglasa bo‘ladi.

— Bilasizlar, topgani u oydan bu oyga zo‘rg‘a yetadigan ro‘zg‘or edik. Bir kuni armiyada birga xizmat o‘tagan farg‘onalik o‘rtog‘imnikiga bordik. U ancha badavlat, el ichida obro‘li odamga aylanibdi. Aytishicha, bugungi kunda tikuvchilik korxonasi bo‘lib, asosan, chet el bilan ishlar ekan. Ishchilari ham begona emas, hamqishloqlari, qo‘ni-qo‘shnisi. Xullas, shunday ishni yo‘lga qo‘yganiga havas qilib keldim, — deydi mezbon.

Dilshod Doniyorov shu to‘y bahona bo‘ladi-yu, bir dunyo maqsad bilan uyiga qaytadi. Yo‘l bo‘yi o‘ylab kelibdi: “Unda bor imkoniyatning qaysi menda yo‘q?”

Joyi bor, mahallasining o‘zida ishsiz yurgan qancha xotin-qiz bor, vaqt bor. Hozircha yo‘q narsasi — mablag‘. Buyog‘iga tavakkal qilibdi.

ISHONCHNI SUIISTE’MOL QILMASANGIZ, BARAKA ARIMAS EKAN

— Oilam, yaqinlarim bilan maslahatlashdim. Ular ham ma’qulladi. Dastlab kredit olish uchun hokimiyatga va bankka murojaat qildik, ular bu loyihani qo‘llab-quvvatladi.

Bir qarindoshimiz maishiy xizmat ko‘rsatish uchun qishloq markazida mana shu binolarni qurgan, lekin hozircha biror ishni yo‘lga qo‘ya olmayotgan edi. U bilan sheriklikda ish boshlashga kelishib oldik.

100 million so‘mdan ortiqroq kredit ajratishdi. Toshkentga borib, kerakli uskunalarni olib keldik. Qishlog‘imizning o‘zida 10 ga yaqin chevar bor ekan, hammasini ishga oldik. 15 yildan buyon shu kasb bilan shug‘ullanib kelayotgan qarindoshimiz ularga rahbarlik qiladigan bo‘ldi.

Tadbirkorlikni yangidan boshlagan har bir inson uchun boshida eng katta muammo — mijoz topish. Ishlab chiqaruvchilar ko‘p, tanlovni esa odamlarning o‘zi hal qiladi. Nima uchun aynan sizning mahsulotingizni tanlashi kerak? Ularning ishonchini qozonishim uchun nimalar qilishim kerak?

Mening fikru xayolimni shu savollar band qilib qo‘ydi. Tajriba kam, mablag‘ ham o‘ziga yarasha. Ochig‘i, buyog‘i yaxshi davom etmasa kerak, deb cho‘chidim. Lekin bu ham bir bosqich ekan. Bunday holatda to‘xtab qolmasangiz, kerakli tadbirni topa olsangizgina, tadbirkorlikka ishonchli qadam qo‘ygan bo‘lasiz.

Ming xil xayolda yurgan paytlarim. Avgust oyi, odamlar bolalariga maktab formasi olib berish uchun bozorga qatnay boshladi. Shu jarayon sabab menda g‘oya paydo bo‘ldi: “O‘quvchilar uchun maktab formasi tikamiz!”

Shu kunning o‘zidayoq bozorga jo‘nadim. 3-4 xil maktab formasini andoza uchun olib kelib, chevarlarimiz bilan qanday mato ishlatgan ma’qulu qanday uslubda tikish samarali — hammasini muhokama qildik. Aynan bizdan sotib olishga esa sabab bor — bozor narxidan kamida 30 foiz arzon.

Hisoblab ko‘rsak, yon-atrofdagi 3 ta maktab o‘quvchilari jami mingdan oshar ekan. Shularga kamida 300-400 ta forma sotsak ham ishimiz ancha jonlanib qoladi. Shu tariqa mahsulotlarimizni qishloq bo‘ylab reklama qilishga kirishdik.

Ishonasizmi, maktab boshlanguncha salkam 400 ta maktab formasi tikib sotibmiz. Mahsulotni mehr bilan, sifatli tayyorlasangiz, odamlarning o‘zi sizni tanitib qo‘yarkan. O‘quvchilardagi formaning sifati va narxini ko‘rgach, boshqalardan ham buyurtma tusha boshladi.

Foyda ancha yaxshi bo‘ldi. Lekin maktab formasi mavsumi yilda bir oy davom etadi. Demak, qolgan oylar uchun ham buyurtmalar kerak. Uni kimdan olamiz?

Oxiri bir fikr tug‘ildi. Toshkent shahrida va viloyat bozorlarida to‘qimachilik mahsulotlari sotadigan tanish-bilishlarning telefon raqamini yig‘dim. Hammasi bilan bog‘lanib, yangi ishni yo‘lga qo‘yganimni, ishlarimizdan ba’zi namunalar yuborishimni, agar bozori chaqqon bo‘lsa, hamkorlikni davom ettirishimizni aytdim. Rozi bo‘lishdi. Barchasiga mahsulotlarimizdan namuna yubordik.

Oradan vaqt o‘tib, ularning to‘rtdan bir qismi biz bilan hamkorlik qiladigan bo‘ldi. Bu katta natija edi. Ana endi ishimiz maromiga tushgandek bo‘ldi. Yeng shimarib, mavsumiy kiyim-kechak tikishga, ularni bozorlarga yuborishga kirishdik.

Ko‘rilgan foydadan, birinchi navbatda, davlatdan olgan kreditni yopdik. So‘ng yana bir nechta zamonaviy tikuv mashinasi xarid qilib, ishlab chiqarish imkoniyatlarimizni baholi qudrat oshirdik.

Sifatni, ishonchni suiiste’mol qilmasangiz, baraka ham arimas ekan. Shuning uchun bunga doim e’tibor qaratamiz. Kelajakda rejalar katta. Tajriba ortib borgani sari biz ham xorijdan xaridorlar topish, faoliyatimizni qisman eksportga yo‘naltirish niyatidamiz.

Ikki-uch oy ilgari o‘sha men havas qilgan xizmatdoshim — vodiylik do‘stimiz mehmonga keldi. Unga havas qilib shu ishni boshlaganimga rosa xursand bo‘ldi. Tajribasi bilan bo‘lishdi.

* * *

Biz bu voqeani, bir kishining o‘zgargan hayotini nima uchun esladik? Gap shundaki, keyingi yillarda har bir oiladan jamiyatga katta yo‘l ochilmoqda.

Shu o‘rinda yana savol tug‘ilishi tabiiy: oiladan jamiyatga ochilgan yo‘l bizga nima beradi? Birinchidan, yurtdoshlarimizda hayotdan rozilik hissini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, daxldorlik kayfiyatini kuchaytirib, o‘zgarishlarga hissa qo‘shish ishtiyoqini oshiradi. Uchinchidan, yangi g‘oya va maqsadlar paydo bo‘lib, milliy taraqqiyot sari hayotbaxsh loyihalarni tatbiq etish imkonini beradi. To‘rtinchidan, eng muhimi, jamiyatda ahillik, hamjihatlik muhitini yaratadi.

Demak, bu o‘zgarishlarning har biri umumlashib, jamiyatimizning yangi qiyofasini hosil qiladi. Shu bois, oddiy oilalarning o‘zgarayotgan hayoti, kambag‘allikdan chiqayotgan har bir yurtdoshimizning kichik bir quvonchi ham barchamiz uchun katta natijadir.

SEVGANI — BOLALAR ADABIYOTI

SHU BILAN MAZMUNLI UMRI, HAYOTI

Bugungi o‘zbek ayoli avvalgilardan keskin farq qiladi. Qahramonimizning fikricha, hozirgi ayollardan nafaqat oilada bekalik vazifasi, shuningdek, ishxonada yaxshi xodima, yaxshi ona va yaxshi ayol bo‘lish talab etiladi. Qahramonimiz turmushda va hayotda shunga intilib, o‘z vazifalarini to‘la uddalab kelayotgan ayollardan.

Boshlanishi 1-betda

Bolalarning to‘ng‘ichi bo‘lgani bois, uylarni tozalash, non yopish, sigir sog‘ishdan tashqari mol-qo‘yga qarash, ularga o‘t o‘rib, yem tayyorlash kabi ishlar ham uning zimmasida edi. Shu ma’noda, tugun-tugun o‘tlarni yelkasiga ortib, ba’zan velosipedda tashigan yosh qiz dadasining ham “oyoq-qo‘li” bo‘lgan. Velosiped haydashni bilishi uydagilarga qo‘l kelib, qayoqqa deyishsa, g‘izillab chopaverardi. Yer chopish, ekin ekish, parvarish qilish Xurshida uchun oddiy mashg‘ulot sanalgan. Hozir ham yumushlarni seniki-meniki demay bajarib ketaverishi shundan bo‘lsa kerak.

— Odatda kechqurun dars qilardik. Dadam juda qattiqqo‘l edi. Balki shunisi ham yaxshi bo‘lgandir, — deb xotirlaydi Xurshida Hamroqulova. — Televizorga tikilib o‘tirgan odamni xushlamasdi. Shuning uchun dadam uyda bo‘lganida televizor ko‘rolmasdik. Yo‘q paytlarida esa o‘qishdan, ishdan ortmasdik. Ma’naviy ozuqani, asosan, badiiy asarlardan olganmiz. Ammo kitoblar ham uydagilar nazoratida bo‘lib, kattalar adabiyotini o‘qiy olmasdik. Ota-onam adabiyotni chuqur anglamasa ham kitobning orqasidagi belgiga qarab bizga to‘g‘ri keladimi-yo‘qmi, ajrata olardi. Kutubxonadan olib kelgan kitoblarimni ko‘pincha hovlining etagida, tomda hech kim yo‘q paytlarda o‘qir edim. Yilda bir bor yozgi ta’tilda Toshkentga kelib, sirkka kirardik. Onam poytaxtlik bo‘lgani uchun bunday imkoniyatimiz ham bor edi. Maktabda o‘qib yurgan kezlarimda yaxshi ustozga ro‘para bo‘lganman. U kishi ikki marta respublika fan olimpiadasi g‘olibasi bo‘lishim sababchisi. Ushbu muvaffaqiyatim tufayli Namangan davlat universitetiga imtiyozli o‘qishga kirib, 1992-1997-yillar davomida tahsil oldim.

2000-yilda uning hayotida tub burilish bo‘ldi. O‘sha yillari O‘zMU aspiranturasiga qabul qilinib, ustozi Umarali Normatov rahbarligida “Abdulla Qahhorning “Sarob” romanida shaxs fojiasi talqini” mavzusida nomzodlik, keyinchalik “XX asr o‘zbek nasrida hayot va o‘lim muammosining badiiy talqini” yo‘nalishida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Hayot qozonida qaynagan Xurshida ilm yo‘lida nimalardandir voz kechdi, nimalarnidir topdi. Qisqasi, obdan toblandi. Uch farzandi bor. Onasining otasi Bo‘riboy aka maktabda ona tili va adabiyot fanidan 40 yil dars bergan va ijod bilan shug‘ullangan.

— Bobomning she’riy mashqlarini onam saqlab qo‘ygan. Adabiyotga qiziqishim bobomdan o‘tgan bo‘lsa kerak. Yoshligimda juda ko‘p kitob o‘qiganman, — deydi olima.

Bugungi o‘zbek ayoli avvalgilardan keskin farq qiladi. Qahramonimizning fikricha, hozirgi ayollardan nafaqat oilada bekalik vazifasi, shuningdek, ishxonada yaxshi xodima, yaxshi ona va yaxshi ayol bo‘lish talab etiladi. Qahramonimiz turmushda va hayotda shunga intilib, o‘z vazifalarini to‘la uddalab kelayotgan ayollardan. Ilm yo‘lida katta qiyinchiliklarni boshdan kechirishga to‘g‘ri kelgan. Oila ishlaridan, ilmdan va ishdan ortib, 20 yilcha repetitorlik ham qildi. Shu orqali ro‘zg‘orning bir tomonini ko‘tardi. Olima Muhabbat Umirova bilan hammualliflikda 3-sinflar uchun tayyorlagan “O‘qish kitobi” 10 yil (2012-2022-yillar) davomida amalda bo‘ldi. Bolalar adabiyotini kuzatib, yutuq va kamchiliklari, targ‘ibot va tashviqotdagi oqsoqliklarini tahlil qilib borar ekan, qalbida hozirgi bolalar adabiyotini keng targ‘ib qilish kerak, degan fikr tug‘ildi. Shuning natijasi o‘laroq, 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan “Olima ayollar” grantida qatnashish istagi tug‘ilib, “Bolalaradabiyoti.uz” multimediali elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratish” loyihasi bilan ishtirok etdi va bu loyiha Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan moliyalashtirildi.

Hozirgacha bu yo‘nalishda qanday ishlarni amalga oshirdingiz, degan savolimizga Xurshida quyidagicha javob berdi:

— Avval materiallar yig‘ildi. YouTube platformasida “Bolalar adabiyoti” kanalini ochib, besh yuzga yaqin audio va videomaterial joyladik. Ular orasida ertaklarning rus, o‘zbek, ingliz tillarida o‘qilgan shakllari mavjud. Shuningdek, Yozuvchilar uyushmasi Bolalar va o‘smirlar kengashi a’zolari bilan hamkorlikda ularning asarlari audiolashtirildi. Ayrim adabiy asarlarni mualliflar, ba’zilarini o‘zim o‘qidim. Ijodkorlarning tarjimayi holi ovozlashtirildi. Faqat badiiy asarlar emas, bolalar nutqida ishlatilishi lozim bo‘lgan ayrim so‘zlar izohi, bolalar aytimlari ham ovozlashtirilib, “Bolalar adabiyoti” kanaliga joylashtirildi. Keyinroq bolalar adabiyoti tadqiqotchilarining tarjimayi holi ovozli shaklda kanalga joylashtirildi. Bundan tashqari, bolalar ijodkorlari haqidagi ko‘rsatuvlar, ular ishtirok etgan tadbirlardan lavhalar, bolalar ijodkorlari she’rlariga bastalangan kuy-qo‘shiqlar ham kanalimizdan joy oldi. Bularning hammasi “bolalaradabiyoti.uz” multimediali elektron platformasi va uning mobil ilovasini yaratishda qo‘l keldi. Ayni damda keng kitobxonlar ommasi uchun mo‘ljallangan platforma va mobil ilova ishlab turibdi.

Ularda yangiliklar, audiokitoblar, videomateriallar, maqolalar sahifalari doimiy ravishda to‘ldirib boriladi. Yangiliklar bo‘limida 30 ga yaqin kitob bo‘lib, ular yangidan tartiblangan ertaklar, mavzular kesimida bolalar ijodkorlari asarlaridan to‘plangan badiiy asarlar, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari va mutaxassislar uchun tuzilgan bir necha turdagi izohli lug‘atlardan iborat.

* * *

Qahramonimiz shuncha yumushdan ortib, jamoat ishlarida ham faol. Ayni paytda universitet Olima ayollar jamiyati raisi. Jamiyat a’zolarining ilmiy biografiyasi ham “Olima ayollar” kanaliga joylangan. Ayni vaqtda ularning ilmiy tadqiqotlarini umumlashtirish va tasniflash uchun platforma yaratilyapti. Bu borada ham mo‘ljallangan ishlar bisyor.

— Sizga chin ma’noda havasimiz kelyapti. Ayol boshingiz bilan buncha ishga qanday ulguryapsiz, o‘zbek bolalar adabiyoti uchun kuyib-yonishingizning boisi nimada? Qisqa vaqt ichida 30 ga yaqin kitobni rasmli, bezakli, QR-kod bilan ovozlashtirilgan holda, bolalarning yoshi va tafakkuri, qiziqishlari doirasida berishning o‘zi bo‘lmaydi. Bu ishlaringizga turmush o‘rtog‘ingiz qanday qaradi? — degan savolimizga suhbatdoshimiz bunday javob berdi:

— Avvalo, turmush o‘rtoqdan yolchiganman. Meni chin dildan qo‘llab, kerak bo‘lsa, yordamini ayamadi. Inson qachonki qilgan ishidan zavq topsa, charchash nimaligini bilmaydi. Barcha ishlarimni zavq bilan bajardim, butun borlig‘im bilan harakat qildim. Kimlarningdir mushkulini oson etgan, bolalar adabiyoti rivojiga xizmat qilgan bo‘lsam, shuning o‘zi menga olam-olam quvonch bag‘ishlaydi.

Bu borada qahramonimiz xulosalaridan orttirib so‘z aytishga ojizmiz.

Ravshan ISOQOV,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

VIJDON TAROZISI

O‘QITUVCHI ORIYATI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Umid XO‘JAMQULOV, pedagogika fanlari doktori

O‘qituvchilik — sharafli kasb. Uning sharafi shundaki, jamiyatni harakatlantirib turuvchi barcha soha rivojida muallimlarning zahmatli mehnati yotadi. Bunday ko‘lamli e’tirof shu paytga qadar boshqa biror kasbga nasib qilmagan. Bundan keyin ham nasib qilishi dargumon. Chunki dunyoda faqat bitta kasb bor — o‘qituvchilik. Qolgan barcha kasblar uning hosilasidir.

Muallimlik — nozik kasb. Nozikligi shundaki, bu kasb egalariga odamlar doimo namuna timsoli sifatida qaraydi. Ustoz hatto uyqusi bilan ham boshqalarga o‘rnak bo‘lishi lozim. Ong ostida o‘qituvchi ekanini eslatib turuvchi tovush uni doim risoladagidek yurishga majbur qiladi. Har bir ish yoki xatti-harakatga nisbatan “men o‘qituvchiman” degan munosabat bilan yondashishi talab qilinadi. Barchada uchrashi mumkin bo‘lgan illatlar muallimdan kutilmaydi.

Pedagoglik — mashaqqatli kasb. Mashaqqati shundaki, boshqa kasb egalarining ishi ishxonasida qoladi. Uyiga qaytgach, oilasi davrasida miriqib hordiq chiqaradi. O‘qituvchilarni esa kasbi doim ortidan “quvlab yuradi”. Ular uylariga qaytgach, ishining ikkinchi qismi boshlanadi. Ertangi darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun yangi adabiyotlarni varaqlaydi. Mashg‘ulotni yangicha metodlar asosida samarali tashkil qilish rejasini tuzadi. O‘quvchilarning daftari yoki yozma ishlarini tekshiradi. Hech bo‘lmasa, konspekt yozadi.

Ularning xayoli doim o‘zlashtirishi past o‘quvchilar saviyasini ko‘tarish yoki qobiliyatli o‘quvchilar iqtidorini to‘g‘ri yo‘naltirish bilan band. Shundan bo‘lsa kerak, muallim yashaydigan xonadonning chirog‘i tonggacha o‘chmaydi. Uning derazasidan tushib turgan xiragina nur go‘yo olamni zimistondan, odamlarni jaholatdan, dunyoni esa halokatdan saqlab turibdi.

O‘qiganlaringiz o‘qituvchilik kasbiga yuqoridan turib qaraganda ko‘rinadigan chiroyli manzara. Buni nazariyaga o‘xshataman. Ammo nazariyaning amaliyotga tatbiqi jarayonida chiroyli manzara ortida noxush holatlar ham uchrab turadi. Bugun shularning bittasiga to‘xtalmoqchimiz. U ham bo‘lsa, o‘qituvchining oriyati masalasidir. Bu ba’zilar o‘ylaganchalik o‘ta jo‘n hodisa emas, uning ortida o‘qituvchilik kasbining hurmati va e’tirofi, darsning sifati bilan bog‘liq jiddiy masala turibdi.

Oriyat — insonning noqulay vaziyatga tushishga qarshilik hissiyoti. O‘ziga nisbatan nohaq ayblovga qarshi ichki isyoni. O‘zi va o‘zligiga tahdid soluvchi hodisalarga qarshi qo‘zg‘atuvchi hamda kishini toptalishlardan asrovchi kuch.

Jamiyatda o‘rnak va namuna timsoli bo‘lgan o‘qituvchilik kasbida oriyat o‘ta zarur. Nafaqat o‘qituvchilar, balki barcha uchun ushbu tushunchaning qadr-qimmati doim baland bo‘lib kelgan. Muallimlikka yuqoridagi yondashuv bilan qaraganimizda, bu tushunchaning ahamiyati yana bir necha karra ortadi. Oriyatini saqlay olmagan pedagog misqollab topgan hurmatini botmonlab yo‘qotadi. Umuman, insonlar uchun hurmat va obro‘ topishda o‘sish tezligi arifmetik progressiyadan bir necha karra sust. Uni yo‘qotishda esa pasayish tezligi geometrik progressiyadan bir necha karra shiddatli kechadi.

Oriyatsiz o‘qituvchilar oramizda kam deyish ham, ko‘p deyish ham noto‘g‘ri. Har holda shu ikkalasining o‘rtasida, desak haqiqatga yaqin bo‘ladi. Bunday o‘qituvchilarni ko‘rgan yosh o‘quvchilarning dastlab o‘qituvchilik kasbi borasidagi shakllangan tushunchalari chalkashib ketadi. Chunki aksariyat oilalarda o‘qituvchiga nisbatan hurmat ruhida tarbiya beriladi. Shuning uchun o‘quvchilar bunday o‘qituvchilarni boshida tushuna olmaydi. O‘quvchilarning bunday o‘qituvchilarni tushunishi esa o‘sha o‘qituvchining hurmati va obro‘si chilparchin bo‘lishi bilan yakun topadi. Hurmatini yo‘qotgan o‘qituvchining dars mashg‘ulotida yalovbardorlik va tashabbus endi o‘quvchilar qo‘liga o‘tib ketadi. Ular hurmatini yo‘qotgan o‘qituvchining darsiga ham, uning dars mavzusi borasidagi fikrlariga ham hurmat bilan munosabatda bo‘la olmaydi. Buning oqibati esa “ikki karra ikki”dek ayon.

O‘qituvchining oriyati aslida nima va u qayerda bo‘y ko‘rsatadi?

Bu tuyg‘u dastavval o‘qituvchining o‘ziga, qolaversa, kasbiga, darsiga va fikrlariga nisbatan hurmatsizlik ko‘rsatilganda, bilimiga nisbatan shubha bilan qaralganda yuzaga chiqadi. Shu o‘rinda bir mulohaza: keyingi paytlarda “interfaol metodlar”ga ruju qo‘yib, o‘quvchining dars mashg‘ulotidagi faolligiga keragidan ortiq berilib ketdik, nazarimda. Dars mashg‘ulotida o‘quvchining faolligi yaxshi, ammo bundan o‘qituvchining hurmati, dars mashg‘ulotining sifati ziyon ko‘rmasligi kerak. Keyingi paytlarda “An’anaviy ta’limda dars mashg‘uloti o‘qituvchining faolligi va yetakchiligida o‘tgani sababli mashg‘ulotning samaradorligi yetarli darajada ta’minlanmagan”, degan mazmundagi fikrlar tez-tez quloqqa chalinadigan bo‘lib qoldi. Bilmadim-u, ammo bu fikr, nazarimizda, bir oz shubhali. Fikrimizcha, dars mashg‘ulotida o‘qituvchining faolligi va tashabbuskorligi yuqori bo‘lishi o‘ta lozimdir. O‘zini hurmat qilgan va bilimli o‘qituvchi mashg‘ulot paytida faollikni ham, tashabbusni ham o‘quvchiga berib qo‘ymaydi. Bunday o‘qituvchilar auditoriyadagi dars mashg‘ulotiga, fanga yoki o‘qituvchiga nisbatan zig‘ircha bo‘lsayam hurmatsizlikni, oriyat nuqtayi nazaridan kelib chiqib, e’tiborsiz qoldirmaydi. Unga nisbatan choralar ko‘radi. Bu esa o‘quvchilarga ko‘pincha yoqmaydi, albatta. Ammo o‘qituvchining ayni xatti-harakatini o‘quvchining “tashqi meni” tan olmasa-da (chunki uning ham oriyati bor), “ichki meni” tan oladi, ma’qullaydi. Bunday o‘qituvchilarga nisbatan hurmat o‘quvchining ong ostida shakllanadi.

Oriyat aslida barcha insonlarga xos fazilat. Ammo ba’zilarda tashqi sabablarga ko‘ra bu tuyg‘u yo‘qola boradi yoki bosh ko‘tarishga ojiz bo‘lib qoladi. Oriyat yo‘qolishiga olib keluvchi tashqi sabablar esa o‘sha insonning qaysidir jabhadagi ojizligi sabab yuzaga keladi. Shu ma’noda, o‘qituvchi oriyatining yo‘qolishiga uning bilimsizligi (bunday o‘qituvchilar umumta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida ko‘proq) yoki tamagirligi (oliy ta’lim tizimida ko‘proq) sabab bo‘ladi. Bilimsizlik va tamagirlik qonun yo‘li bilan ta’qib qilinadi. Tamagirlik tushunarli, ammo bilimsizlik ham ta’qib qilinadimi, deyishingiz mumkin. Albatta, o‘qituvchining bilimi davlat tomonidan nazoratga olingan.

> **Pedagoglik — mashaqqatli kasb. Mashaqqati shundaki, boshqa kasb egalarining ishi ishxonasida qoladi. Uyiga qaytgach, oilasi davrasida miriqib hordiq chiqaradi. O‘qituvchilarni esa kasbi doim ortidan “quvlab yuradi”. Ular uylariga qaytgach, ishining ikkinchi qismi boshlanadi. Ertangi darsga tayyorgarlik ko‘rish uchun yangi adabiyotlarni varaqlaydi. Mashg‘ulotni yangicha metodlar asosida samarali tashkil qilish rejasini tuzadi. O‘quvchilarning daftari yoki yozma ishlarini tekshiradi. Hech bo‘lmasa, konspekt yozadi.**

Attestatsiya komissiyasi bilimsiz deb topgan o‘qituvchiga nisbatan hatto o‘qituvchilik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish bo‘yicha qaror qabul qilishi mumkin. Bu ikki qusur, xalq tili bilan aytganda, o‘qituvchining tilini qisiq qilib qo‘yadi, natijada uning oriyati ojizlashib boraveradi. Bunday qusurlarga ega o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘ta ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladi, chunki o‘quvchilarni tartibga chaqirishi yoki ularga tanbeh berishi bilan bog‘liq o‘quvchi uchun yoqimsiz ishlar o‘qituvchidagi qusur va kamchiliklar ular tomonidan oshkora aytib yuborilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bilimsiz va tamagir o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘ziga, qolaversa, kasbiga, darsiga va fikrlariga nisbatan hurmatsizlik qilayotganini, bilimiga nisbatan shubha bilan qarayotganini go‘yoki “ko‘rmaydigan” bo‘lib qoladi. Oshkora hurmatsizlik ularning oriyatini qiynasa-da, bunga qarshi ular ham oshkora munosabat bildirishga jur’at qilolmaydi. Bora-bora o‘quvchining hurmatsizligiga ko‘nikib qolgan o‘qituvchini endi oriyat bezovta qilmay qo‘yadi. Bu esa undagi “o‘qituvchilik oriyati” tuyg‘usi o‘lganini bildiradi. Metodikasida yoki muomalasida kamchiligi bor o‘qituvchini tushunish mumkindir, ammo bilimsiz o‘qituvchini tushunib ham, kechirib ham bo‘lmaydi. Dars mashg‘ulotida faollik va tashabbus uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ko‘zga ko‘rinmaydigan pinhona kurash mavjud. Buni men tabiiy tushunaman.

Bu kurashda muqarrar g‘alaba aslida o‘qituvchi tarafda bo‘ladi. Ammo bilimsizlik uni o‘quvchilarga “tuhfa” qilib yuboradi. Dars mashg‘ulotining samarali bo‘lishi uchun faollik va tashabbus doim o‘qituvchi tarafida bo‘lishi shart. Chunki ta’lim beruvchidagi bilim va bilim olishning usul va yo‘llari uning faolligi bilan ta’lim oluvchiga o‘tadi. Bu choynakdagi choyning piyolaga quyilishi kabidir. Piyolaga choynakning harakati bilan choy quyiladi va bu jarayonda ikkalasini ham faollashtirish yoki piyolaning faolligini oshirish kutilgan samarani bermaydi. Biz bu bilan dars mashg‘ulotida o‘quvchi faol bo‘lmasligi kerak, demoqchi emasmiz, ammo o‘quvchining faolligi maqsad sari qaratilgan, lozim darajada bo‘lishi va o‘qituvchining faolligiga xalal bermasligi kerak. O‘quvchilar faolligining chegaradan chiqishi dars mashg‘ulotining shovqinli o‘tishiga, o‘qituvchining mashg‘ulot maqsadidan chekinishiga sababchi bo‘ladi. Zero, dars mashg‘ulotining vaqti chegaralangan bo‘lib, uning har bir daqiqasi maqsadli va oqilona sarflanishi lozim.

O‘qituvchi uchun oriyat masalasining jo‘n hodisa emasligi aslida mana shularda ko‘rinadi. Bu dunyo muvozanat asosiga qurilgan. O‘z ustida ishlash va nafsning jilovlanishi irodani yengishni, mehnat va mashaqqatni talab qiladi, oqibatda hurmat va e’tirof bilan siylanadi. Bilimsizlik va nafsga berilish esa irodani qiynamaydi, mehnat va mashaqqatni talab qilmaydi, ammo u hurmatning yo‘qolishi hamda oriyatsizlik bilan jazolanadi. Mavzu borasida bizning fikrlarimiz shu joyda poyoniga yetdi. Bu yog‘iga nafsning jilovlanishi, mehnat ortidan topilgan hurmat va e’tirof bilan kam mehnat qilib, nafsga erk berish oqibatida topilgan “rohat-farog‘at”ning vaznini o‘lchaydigan vijdon tarozisi gapirsin...

www.yuz.uz
yuz.uznews
YANGI O‘ZBEKISTON
yuz.uz_news

ILMIY KONFERENSIYA

TILGA YARASHIQLI YOZUV MUHIM MASALADIR

Davlatimiz rahbari joriy yil Toshkent shahar saylovchilari bilan uchrashuvida alifbo masalasiga to‘xtalib, ziyolilarimiz, keng jamoatchilik bilan bamaslahat lotin yozuviga asoslangan alifbomizni takomillashtirish bo‘yicha ishlarni yakuniga yetkazish zarurligini ta’kidlagan edi.

QR-kodni skaner qilish orqali videoga o‘ting!

Ushbu vazifani bajarish maqsadida Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti olimlari tomonidan shu vaqtgacha to‘plangan tajriba, olimlar, ziyolilar va keng jamoatchilik fikr-mulohazalari, soha mutaxassislarining ilmiy xulosalari, takliflarini har tomonlama hisobga olgan holda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan respublika ilmiy-nazariy konferensiyasida ayni takliflar muhokama qilindi.

— Davlat tilini rivojlantirish, alifbomizni takomillashtirish borasida hal qilinadigan masalalar ko‘p. Qilingan ishlar ularning bir qismi xolos, — dedi Vazirlar Mahkamasining Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari Nodir Xolbo‘tayev. — Ayniqsa, bugun yangi bir taraqqiyot davri, sun’iy intellekt, elektron platformalar bilan ishlashda bu boradagi muammolarga aniq yechim topish kerak bo‘lyapti. Bugungi konferensiya ham aynan shu maqsadda tashkil etildi.

Ilmiy-nazariy konferensiyada so‘zga chiqqan Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori Nizomiddin Mahmudov, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinov ushbu konferensiya kun tartibiga bugungi kunda dolzarb bo‘lib turgan masala kiritilganini, alifbomizda ayrim kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi haqida jamoatchilik tomonidan ko‘plab fikrlar ilgari surib kelinayotganini ta’kidladi. Shuningdek, mazkur alifboning ahamiyati, uni takomillashtirish bo‘yicha qilinishi lozim bo‘lgan ishlar, ilmiy-huquqiy yo‘nalishlarda amalga oshirilishi talab etiladigan chora-tadbirlar haqida ham fikrlar bildirildi.

— O‘tgan yillarda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosining maqbul va nomaqbul jihatlari ko‘rindi. Zero, tilga yarashiqli yozuv bo‘lishi eng muhim masalalardan hisoblanadi. O‘ylaymizki, bugungi tadbirda shu masalalar yuzasidan bir qarorga kelinadi, — dedi Nizomiddin Mahmudov.

Konferensiya davomida lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi loyihasi taqdimoti bo‘lib o‘tdi. O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo‘lim mudiri Yorqinjon Odilov yangi o‘zbek alifbosi bo‘yicha taklif etilayotgan o‘zgartishlar haqida ma’lumot berdi.

Anjumanda lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi kamchiliklarni bartaraf etish va uni takomillashtirish bo‘yicha fikrlar, takliflar ilgari surildi va muhokama qilindi. Xususan, taklif sifatida ishchi guruh tomonidan 28 ta harf, 1 ta harf birikmasi va tutuq belgisidan iborat takomillashtirilgan alifbo loyihasi taqdim etildi.

Konferensiya yakunida bildirilgan barcha fikr-mulohaza va takliflarni hisobga olgan holda, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ma’qullandi.

O‘ylaymizki, tilshunoslarimiz aytganidek, mazkur muhokamalardan so‘ng o‘z ona tilimizga yarashiqli milliy alifbomiz xalqimiz tomonidan ham iliq qabul qilinib, uzoq yillar avlodlarimizga xizmat qiladi.

M.MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

ANJUMAN

XALQARO TADBIRLAR TADORIGI

Davlatimiz rahbari 2022-yil 25-avgustda imzolagan “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorga ko‘ra, alloma hayoti va faoliyati, uning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan ulkan hissasiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya hamda xalqaro anjuman o‘tkazish vazifalari belgilangan.

Qomusiy olimning ilmiy merosini ommalashtirish, yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilish nafaqat tarixiy bilimlarni mustahkamlashga, balki yosh avlodga haqqoniy o‘tmishimizni anglatish, jahon maydonida O‘zbekistonning ijobiy imijini yanada yaxshilash jihatidan ham ahamiyatlidir.

Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida “Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya oldidan matbuot anjumani o‘tkazildi. Unda Fanlar akademiyasi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati va Toshkent shahar hokimliklari tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda joriy yilning 25-28-sentabr kunlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida yuqorida aytilgan ilmiy-amaliy konferensiya hamda xalqaro anjumanni o‘tkazish yuzasidan muhim chora-tadbirlar rejalashtirildi.

Xalqaro tadbirda Turkiya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Afg‘oniston, Xitoy, Qozog‘iston, Rossiya kabi davlatlardan xorijiy mehmonlar, taniqli olim va ziyolilar, yozuvchi, shoirlar, san’at va madaniyat sohasi vakillari, jurnalistlar ishtirok etishi ko‘zda tutilgan.

Matbuot anjumanida Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ilmiy-ma’rifiy faoliyati hamda uning jahon tamadduni rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida, shuningdek, ta’lim tashkilotlari va mehnat jamoalarida keng targ‘ib qilish yuzasidan qator tadbirlarni o‘tkazish rejalashtirilgani ma’lum qilindi.

Allomaning ilmiy-ma’rifiy merosi, uning insonparvarlik g‘oyalarini kelajagimiz vorislariga tanishtirish, ularni buyuk ajdodlarga munosib tarbiyalash maqsadida “Ma’naviy barkamol avlod — barqaror jamiyat bunyodkori” mavzusida o‘quvchi yoshlar bilan davra suhbatlari tashkillashtiriladi.

Tadbirda so‘z olgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Minhojiddin Hojimatov qomusiy olimning “Kitob as-saydana fi-t-tibb” nomli kitobi tayyorlanayotgani, u bizgacha yetib kelgan “Tabobatda dorishunoslik” nomli arab tilidagi so‘nggi asarining o‘zbek tiliga to‘liq ilmiy izohli tarjimasi ekanini ta’kidladi. “Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlari” nomi bilan tayyorlangan risola esa mutafakkirning hayoti va ilmiy merosi hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarini talqin etgani bilan ahamiyatli bo‘ladi.

Aytish joizki, buyuk bobokalonimizning xotirasini ulug‘lash, uning nomini abadiylashtirish, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, millatsevarlik tuyg‘ularini va ilmga bo‘lgan rag‘batni yanada oshirish bugun har qachongidan muhimdir. Yuqorida nomi keltirilgan qaror Abu Rayhon Beruniyning ilm yo‘lida erishgan yutuqlarini chuqur o‘rganish, keng jamoatchilikka targ‘ib qilish, shuningdek, jahon hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilishiga zamin yaratdi. Eng muhimi, ertamiz egalarida buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish, ular kabi ilm-fanga intilish hissini yanada kuchaytiradi.

Munojat RAHIMJON qizi,
jurnalist

FESTIVAL SHUKUHI

HUNAR SEHRI CHORLAGAN SHAHAR

Bugun ko‘hna Qo‘qon har qachongidan-da gavjum, fayzli. Bu yerda bo‘lib o‘tayotgan II xalqaro hunarmandlik festivalida 70 dan ortiq xorijiy davlat va mamlakatimiz usta-hunarmandlari o‘z mahsuloti bilan ishtirok etmoqda.

Xalqaro tadbirning Qo‘qon shahrida o‘tkazilayotgani bejiz emas. Chunki bu shahar qadim-qadimdan hunarmandlik rivojlangan madaniy markazlardan biri bo‘lib kelgan. Bu yerda hunarmandlik va xalq amaliy san’atining turli yo‘nalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan.

Ikkinchi xalqaro festivalga iqtidorli hunarmandlar va iste’dodli yoshlarni jalb qilish maqsadida “Men Qo‘qonga boraman” shiori ostida ikki bosqichdan iborat ko‘rgazma va ko‘rik-tanlovlar tashkil etildi. Shahar va tumanlar kesimida o‘tkazilgan birinchi bosqichda ikki mingga yaqin, ikkinchi — Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bosqichida mingga yaqin hunarmand saralab olindi.

Kun tartibidan o‘rin olgan qator qiziqarli tadbirlar, mahsulotlar ko‘rgazmasi, ko‘rik-tanlov va mahorat mashg‘ulotlari festivalga o‘zgacha ko‘tarinkilik, ulug‘vorlik bag‘ishlamoqda.

— Bu nufuzli festivalda ishtirokchilarning zavq-shavqi, yaratuvchanlik xislatlarini ko‘rib, yanada ruhlandim, — deydi Tojikistonning Konibodom shahridan kelgan mehmon Sohibjon Sodiqov. — Keyingi yillarda ikki qardosh xalq o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, quda-andachilik an’analari yanada mustahkamlangani maqsad va qarashlarimiz birligini ko‘rsatdi. Festival zo‘r uyushqoqlik, hamjihatlikda tashkil etilgan. Bu yerdagi har bir hunarmandlik mahsulotini betakror san’at asariga qiyoslash mumkin.

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

— O‘zbekistonga ilk bor kelishim, — deydi rossiyalik hunarmand Nadejda Posevkina. — Yurtingizdagi milliy hunarmandlik an’analarini rivojlantirish, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlar behad quvontirdi. Ayniqsa, ko‘hna Rishtonda usta kulollar tayyorlagan sara mahsulotlar o‘ziga xos rang-tasvirlarga boyligi bilan e’tiborimni tortdi. Biz ular bilan hamkorlikda ishlash, tajriba almashish, savdo-sotiq aloqalarini yo‘lga qo‘yish uchun bu yerga keldik. Hammasi ajoyib, juda go‘zal. Bunday xalqaro tadbirni tashkil qilgan tashabbuskorlarga rahmat. O‘zbek kulolchilik maktablari ish tajribalari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Kulollar uchun soliq, kredit, mahsulotlar eksporti bilan bog‘liq qator imtiyoz va imkoniyatlar yaratib berilgani tahsinga sazovor. Festivalda juda ko‘p hunarmandlar bilan tanishib, tajriba almashdik, o‘zbek milliy ipak matolaridan tayyorlangan libos va sovg‘abop buyumlar xarid qildim.

— Festival menda juda katta taassurot qoldirdi, — deydi Yangi zelandiyalik ishtirokchi Laylo Volter. — Birinchi hunarmandlar festivalida ham ishtirok etganman. O‘zbek milliy matolari g‘oyat go‘zal. Avvalgi kelganimda o‘zim xarid qilgan matolardan turli liboslar tayyorladim. Festivalda Yangi Zelandiya hunarmandligiga xos bo‘lgan mahsulotlarimiz bilan ishtirok etyapmiz.

— O‘n uch yildan buyon hunarmandlik bilan shug‘ullanaman, — deydi Navoiy viloyati Uchquduq tumanidan kelgan tadbirkor Zebiniso Sharipova. — Asosan, tuya junidan davolovchi xususiyatga ega bo‘lgan paypoq, nimcha, ko‘rpa singari o‘nga yaqin turdagi mahsulot tayyorlaymiz. 2019-yildagi festivalda ishtirok etib, qozog‘istonlik hamkorlar bilan mahsulot sotish borasida kelishuvlarga erishgandik. Endi Rossiyaga ham eksport qilyapmiz. Shu maqsadda uyda o‘tirgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj 25 nafar xotin-qizni kasanachilik asosida ish bilan ta’minladik. Festival juda chiroyli o‘tmoqda.

Festival doirasida “O‘zbekiston hunarmandchiligi” kitob-albomi taqdimoti, xalqaro hunarmandlik muzeyi ochildi. Rishtonda kulollar forumi bo‘lib o‘tdi.

Rasuljon NAZIROV,
jurnalist

QR-kodni skaner qilish orqali videoga o‘ting!

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DUK
MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-946.
43555 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.
“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Ulug‘bek Asrorov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05